

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING TASHKILY-HUQUQIY VA NORMATIV ASOSLARI

Mansurova Dilafruz Uktamjanovna,
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Unda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, sog'lom muhitga integratsiya qilish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida teng imkoniyatlar yaratish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun, maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda inklyuziv ta'limga oid belgilangan vazifalar tahlil qilingan. Maqolada inklyuziv ta'limni tashkil etish inson huquqlari, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va sifatli ta'lim tamoyillari bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, maktabgacha ta'lim, huquqiy-me'yoriy asos, teng imkoniyat, ta'lim sifati, ijtimoiy integratsiya, individual yondashuv.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируются организационно-правовые и нормативные основы организации инклюзивного образования в Узбекистане. Освещены вопросы обеспечения права на образование детей с особыми образовательными потребностями, их социальной адаптации, интеграции в здоровую образовательную среду, а также создания равных возможностей в образовательном процессе. Рассмотрены положения Конституции Республики Узбекистан, Закона «Об образовании», Закона «О дошкольном образовании и воспитании», Закона «О правах лиц с инвалидностью», Концепции развития системы дошкольного образования до 2030 года и других нормативно-правовых документов. В статье обосновано, что организация инклюзивного образования тесно связана с принципами прав человека, социальной справедливости, равных возможностей и качественного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, дошкольное образование, нормативно-правовая основа, равные возможности, качество образования, социальная интеграция, индивидуальный подход.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the organizational, legal and regulatory foundations for implementing inclusive education in Uzbekistan. It examines the issues of ensuring the right to education for children with special educational needs, their social adaptation, integration into a healthy educational environment, and the creation of equal opportunities in the educational process. The article analyzes the provisions of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Education", the Law "On Preschool Education and Upbringing", the Law "On the Rights of Persons with Disabilities", the Concept for the Development of the Preschool Education System until 2030, and other regulatory documents. The article substantiates that the organization of inclusive education is closely connected with the principles of human rights, social justice, equal opportunities and quality education.

Keywords: inclusive education, special educational needs, preschool education, regulatory framework, equal opportunities, quality education, social integration, individual approach.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri har bir bolaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashdan iboratdir. Xususan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish, ularning jamiyat hayotida faol

ishtirokini ta'minlash va ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish inklyuziv ta'limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda inson qadrini ulug'lash, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda inklyuziv ta'lim nafaqat pedagogik masala, balki inson huquqlari, ijtimoiy adolat va davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi belgilab qo'yilgani ushbu yo'nalishning huquqiy maqomini yanada mustahkamladi. Bu esa inklyuziv ta'limni tashkil etishni davlatning doimiy kafolati sifatida qarash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Inklyuziv ta'lim bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun hamda maktabgacha ta'limga oid davlat standartlarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari belgilangan.

Ilmiy adabiyotlarda inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni umumiy ta'lim muhitiga integratsiya qilish, ularga teng imkoniyatlar yaratish va individual yondashuvni ta'minlash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Xalqaro tajribalar (UNESCO, 2016) ham inklyuziv ta'limni inson huquqlari va sifatli ta'lim tamoyillari bilan uzviy bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda huquqiy asoslar, pedagogik yondashuvlar va amaliy mexanizmlarning uyg'unligi muhim ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda ilmiy-nazariy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etishga oid asosiy qonunlar, prezident farmonlari, hukumat qarorlari, davlat standarti va ta'lim dasturlarida belgilangan vazifalar mazmunan tahlil qilindi.

Tahlil quyidagi yo'nalishlar asosida olib borildi: birinchidan, inklyuziv ta'limning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari; ikkinchidan, ta'lim sohasidagi qonunchilikda inklyuziv ta'limga berilgan ta'rif va kafolatlar; uchinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga oid davlat siyosati; to'rtinchidan, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni tashkil etish mexanizmlari; beshinchidan, davlat standarti va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida individual yondashuv va moslashtirilgan dasturlar masalasi.

Tahlillar va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilgan. Mazkur asoslar Konstitutsiya, qonunlar, farmonlar, qarorlar, davlat standartlari va ta'lim dasturlari orqali mustahkamlanib bormoqda.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning ta'lim olish huquqi belgilanishi bilan birga, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi alohida qayd etilgan. Bu norma inklyuziv ta'limning konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilganini ko'rsatadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan jarayon sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv inklyuziv ta'limni faqat nogironligi bo'lgan bolalar bilan cheklamasdan, balki turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega barcha ta'lim oluvchilarni qamrab oluvchi keng pedagogik jarayon sifatida talqin etadi.

"Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunda nogironligi bo'lgan shaxslarning inklyuziv ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa nogironlik masalasiga tibbiy yoki ijtimoiy himoya muammosi sifatidagina emas, balki inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashish zarurligini anglatadi.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar tushunchasiga aniq ta'rif berilib, inklyuziv ta'lim va tarbiya bolalarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularga teng imkoniyatlar yaratadigan jarayon sifatida izohlangan. Shuningdek, inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning alohida ehtiyojlarini inobatga olgan holda sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi belgilangan. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'limni keng joriy etish, rehabilitatsiya va abilitatsiya usullaridan foydalanish, moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Bu esa inklyuziv ta'limni strategik rivojlanish yo'nalishi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bu yo'nalish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Bunda asosiy e'tibor alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni ajratib qo'yish emas, balki ularni umumiy ta'lim muhitiga bosqichma-bosqich integratsiya qilishga qaratilmoqda. Inklyuziv ta'limning samaradorligi, avvalo, ta'lim tashkilotlarida moslashtirilgan pedagogik muhit yaratish, individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish, maxsus metodik yondashuvlarni qo'llash, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning joriy etilishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Chunki bola shaxsining ijtimoiylashuvi, kommunikativ rivojlanishi, mustaqil harakatlanish ko'nikmalari, emotsional barqarorligi va o'zini jamiyat a'zosi sifatida his etishi aynan ilk yosh bosqichlarida shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv guruhlarni tashkil etish, bolalar uchun qulay rivojlantiruvchi muhit yaratish va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish ta'lim sifatining muhim sharti hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga oid qarorlarida qisqa muddatli guruhlarning inklyuziv turi faoliyat ko'rsatishi mumkinligi belgilangan. Bunday guruhlarning maqsadi o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarni jamiyatga moslashtirish, ularning ota-onalariga maslahat-metodik yordam ko'rsatish hamda bunday bolalarning tengdoshlari bilan birga ta'lim olishlari uchun qulay shart-sharoit yaratishdan iborat. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ham har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, moslashuvchan yondashuvni ta'minlash, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish masalalari belgilangan. Bu esa inklyuziv ta'limning amaliy mexanizmlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida har bir tuman va shahardagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim guruhlarini ochish belgilanganligi ushbu yo'nalishning amaliy bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi. Bu tashabbus inklyuziv ta'limni faqat deklarativ norma sifatida emas, balki real pedagogik amaliyot sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etishning asosiy huquqiy-me'yoriy yo'nalishlari

O'zbekiston tajribasida inklyuziv ta'limni tashkil etish quyidagi huquqiy-me'yoriy yo'nalishlarga tayanadi:



Umuman olganda, mazkur yoʻnalishlar Oʻzbekistonda inklyuziv taʼlimni huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatdan izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularning uygʻunligi alohida taʼlim ehtiyojlariga ega bolalarning sifatli taʼlim olishi, jamiyatga integratsiyalashuvi va teng imkoniyatlardan foydalanishini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekistonda inklyuziv taʼlimni tashkil etishning huquqiy-meʼyoriy asoslari izchil shakllanib bormoqda. Konstitutsiyada inklyuziv taʼlimga oid normaning mustahkamlanishi, taʼlim va maktabgacha taʼlimga oid qonunlarda teng imkoniyatlar, individual ehtiyojlar, moslashtirilgan dasturlar va sogʻlom muhitga integratsiya masalalarining belgilanishi bu yoʻnalishdagi islohotlarning huquqiy poydevorini yaratadi.

Inklyuziv taʼlimning samarali tashkil etilishi alohida taʼlim ehtiyojlariga ega bolalarning taʼlim olish huquqini taʼminlash bilan birga, ularning jamiyatga moslashuvi, oʻz imkoniyatlarini namoyon qilishi, tengdoshlari bilan birgalikda rivojlanishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Shu bois Oʻzbekistonda inklyuziv taʼlimni rivojlantirishda normativ-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish, pedagog kadrlarning inklyuziv kompetensiyasini oshirish, taʼlim tashkilotlarida moslashtirilgan muhit yaratish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va har bir bolaning individual ehtiyojiga yoʻnaltirilgan taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil.
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. OʻRQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr.
3. Oʻzbekiston Respublikasining “Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlari toʻgʻrisida”gi Qonuni. OʻRQ-641-son. 2020-yil 15-oktyabr.
4. Oʻzbekiston Respublikasining “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi Qonuni. OʻRQ-595-son. 2019-yil 16-dekabr.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ-4312-son qarori. 2019-yil 8-may.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha taʼlim sifati va samaradorligini yanada oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-152-son Farmoni. 2024-yil 30-sentyabr.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 391-son qarori. 2019-yil 13-may.
9. Maktabgacha taʼlim va tarbiyaning davlat standarti.
10. “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi.
11. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the implementation of Sustainable Development Goal 4. UNESCO, 2016.